

Habibullayev Ubaydulloxon

O'zDJTSU Farg'ona filiali

Jismoniy tarbiya, sport nazariyasi va uslubiyati o'qituvchisi

JISMONIY TARBIYA O'QITUVCHISINING INDIVIDUAL-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARINI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya. Maqolada jismoniy tarbiya o'qituvchisining intellektual-ijodiy kompetentligini rivojlantirish asosida o'quvchilarning jismoniy tayyorligi, individual-psixologik xususiyatlari, ularning motivlar sohasi atroflicha o'rganilib chiqilganligi, bundan tashqari maktab va sinfdan tashqari tadbirlarda jismoniy chiniqishga mo'ljallangan uzluksiz didaktik tizimni ta'minlaydigan metodik majmualar yaratilganligi bilan bo'g'liq masalalar xususida ilmiy mushohadalar yuritilgan.

Kalit so'zlar: pedagogik faoliyat, tanqidiy yondashuv, kasbiy faoliyat, ijodiy tafakkur, ongli yondashuv.

РАЗВИТИЕ ИНДИВИДУАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ ОСОБЕННОСТЕЙ УЧИТЕЛЯ ФИЗКУЛЬТУРЫ

Аннотация: В статье на основе развития интеллектуальной и творческой компетентности учителя физкультуры, физической подготовленности, индивидуально-психологических особенностей учащихся, их мотивов подробно изучаются, кроме того, предусмотрена непрерывная дидактическая система физического воспитания. обучение в школе и во внеклассной деятельности. Сделаны научные наблюдения по вопросам, связанным с созданием методических комплексов.

Ключевые слова: педагогическая деятельность, критический подход, профессиональная деятельность, творческое мышление, осознанный подход.

DEVELOPMENT OF INDIVIDUAL PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF A PHYSICAL EDUCATION TEACHER

Abstract. In the article, based on the development of intellectual and creative competence of a physical education teacher, physical fitness, individual psychological characteristics of students, their motives are studied in detail, in addition, a continuous didactic system of physical education is provided. training at school and in extracurricular activities. Scientific observations were made on issues related to the creation of methodological complexes.

Key words: pedagogical activity, critical approach, professional activity, creative thinking, conscious approach.

O'zbekistonning yangi taraqqiyot bosqichida ham bo'lajak kadrlarni tayyorlash tizimini modernizatsiya qilish, ularning intellektual va ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish, kasbiy faoliyatda kreativ bo'lish, yuksak aqliy salohiyatga ega shaxs sifatida gavdalanish, ta'limda teran mantiqiy tafakkurli inson va kreativ ijodkor sifatida faoliyat yuritish tizimini takomillashtirish dolzarb kasb etmoqda.

Ilmiy izlanishlar shuni ko'rsatadiki, bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining ijodiy faolligi voqelikni o'zgartirish, uning muammolarini yechishni aniqlashga qaratilgandir. Shunday ekan, o'qituvchi va tahsil oluvchi o'rtasidagi "subyekt-subyekt" munosabatlari yangi muloqot namunasi sifatida o'zgarishi innovatsion faoliyat shartlaridan biridir. Yangi munosabatlar an'analarda bo'lganidek, qistovlar, hukmga bo'ysunish kabi unsurlardan holi bo'lishi hamda ular tenglarning hamkorligi, o'zaro boshqarilishi, o'zaro yordam shaklida qurilgan bo'lishi zarur. Ayni

chog'da A.G.Maslouning "Agar biz chindan ham farzandlarimizning o'zida mavjud barcha kuchlarni dolzarblashtirishini istasak, biz ularni birdan-bir maqsad, ya'ni ijod orqali tarbiyalashimiz zarur"[4], - degan fikrlarini yodga olish o'rinlidir.

Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining ijodiy pedagogik faoliyatga tayyorlashda quyidagi asosiy funksiyalar amalga oshiriladi:

- bo'lajak kasbiy faoliyatga ongli yondashuv tahlili;
- me'yorlarga nisbatan tanqidiy yondashuv;
- kasbiy yangiliklarga nisbatan ishtiyoqmandlik;
- ijodkorlikni shakllantirish;
- o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish, sog'lom turmush tarzi va intilishlarini kasbiy faoliyatida mujassam etish.

Demak, jismoniy tarbiya o'qituvchisi ijodiy faoliyatda yangi pedagogik texnologiyalar, nazariyalar, konsepsiyalarning muallifi, ishlab chiqaruvchisi, tadqiqotchisi, va targ'ibotchisi sifatida namoyon bo'ladi. Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchisini ijodiy pedagogik faoliyatga tayyorlashda muayyan me'yorlardan foydalanish talab qilinadi. Bunday me'yorlar yangilik, maqbullik, yuqori natijalilik, ommaviy tajribalarda innovatsiyani ijodiy qo'llash imkoniyatlarini qamrab oladi.

Pedagogik jarayonda yangilik ta'lim-tarbiya jarayonida kashf qilinadigan yangilik darajasi mohiyatini aks ettirsa, maqbullik o'qituvchi va tahsil oluvchining muayyan ta'limiy natijalarga erishish uchun sarflangan kuch va vositalari, natijalilik esa o'qituvchi faoliyatidagi salmoqli ijobiy samaralarni bildiradi. Pedagogik yangilik o'z mohiyatiga ko'ra ommaviy tajribalarda o'z ifodasini topadi. O'qituvchining innovatsion faoliyati o'z ichiga yangilikni tahlil qilish va unga baho berish kelgusidagi harakatlarning maqsadi va konsepsiyasini shakllantirish, ushbu rejani amalga oshirish va tahrir qilish, samaradorlikka baho berishni qamrab oladi.

Mamlakatimizda ta'lim sohasida faoliyat yuritayotgan jismoniy tarbiya o'qituvchilarining ish uslubini takomillashtirishda optimal-pedagogik usullar izlanmoqda. Ammo bu urinishlar quyidagi kamchiliklar tufayli natijasiz bo'lib qolmoqda:

- bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashda mutaxassislik fanlari blokiga kiruvchi "Jismoniy tarbiya" darslari zamonaviy modifikatsiyalashtirilmayapti;
- tadqiqot doirasida pedagogik jarayon talabalar ta'lim ehtiyojlarini qondirishga moslashtirilmagan;
- jismoniy tarbiya o'qituvchilari talabalarga zamonaviy bilim berishda jismoniy mashqlarni loyihalash texnologiyasidan foydalanish imkoniyatlariga yetarlicha baho berishmayapti; talabalar ta'lim ehtiyojlarini shakllantirishga, uni qoniqtirish uchun sharoitlar yaratishga intilish yetarli darajada emas;
- talabalarga jismoniy yo'nalishdagi didaktik vaziyatli topshiriqlaridan foydalanish tartibli va muntazam ravishda olib borilmayapti; bu mazmundagi auditoriyadan tashqari jismoniy-madaniy-oqartuv ishlarining olib borilishi talab darajasida emas;
- talabalarga kelgusi mutaxassisliklari bo'yicha jismoniy madaniyat sohasiga oid loyihalash texnologiyasi ko'pincha, tasodifiy mashqlardan foydalanish evaziga amalga oshirilmoqda (ularning mazmuni shaklidan tashqarida qoraladi, o'zaro bog'liq holda ifodalanmaydi, shakli esa — mazmunidan alohida olib borilishi kuzatiladi);
- bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilari — ertangi kun umumiy o'rta ta'lim maktab o'qituvchilari mazkur muammoning zamonaviy metodologik hamda nazariy asoslari (ayniqsa, — nazariy-pedagogik) bo'yicha tavsiyalarga ehtiyoj sezadilar.

Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida intellektual-ijodiy kompetentlikni rivojlantirishda, ijodiy tafakkur jarayonidagi ziddiyatlarni bartaraf etishni taqozo qiladi. Bu murakkabliklar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- konformizm, ya'ni boshqalarga o'xshash bo'lish istagi; talaba boshqalar oldida kulgu bo'lish yoki o'ta nodonligini ko'rsatmaslik uchun favqulodda g'oyalarni e'lon qilmaydi.
- nazorat-senzura (ayniqsa botiniy, yoki o'z-o'zini o'ta tanqid qilish), ya'ni, odatda, o'z g'oyalari natijalaridan xavotirlanadigan talabalar hech qachon innovator bo'la olmaydi;

- talabani qobiliyati bilan o'z-o'zini tanqid o'rtasida qandaydir tenglik bo'lishi lozim, binobarin, o'zining iste'dodiga ortiqcha mahliyo bo'lishlik ijodiy tanazzulga olib kelishi mumkin.

- talaba faoliyatidagi omadsizlik va tashabbus iskanjasida qolib ketishdan hadiksirash.

- ijtimoiy voqelikka moslasha olmaslik; bu odatdan tashqari sharoitlarda faoliyat usullarini o'zgartirishdagi tanglikdir.

- muayyan ijtimoiy sharoitda yangi vazifani amalga oshirish yo'llarini topishga intilish, lekin haddan ziyod yuksak motivatsiyaga berilish ko'pincha ilmiy asoslanmagan qarorlar qabul qilishga sabab bo'ladi.

Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida intellektual-ijodiy kompetentlikning asosi bo'lgan tanqidiy tafakkurga to'siq bo'ladigan ijtimoiy, psixologik holatlarni ham e'tiborga olish lozim. Bular tarkibiga quyidagilar kiradi:

- muntazam agressiv xarakterga ega bo'lishlik xavfi; ya'ni, ba'zi talabalar yoshlikdan salbiy xislatlarni tanqid qilish qo'pollik qilishdir, degan fikrga o'rganib qoladi;
- ayrim talabalar yot g'oyalarni tanqid qilib, o'zining fikrlariga nisbatan ham qarshi munosabat uyg'otishdan hadiksiraydi;
- bu qo'rquv yana bir psixologik to'siqni yuzaga keltiradi: shaxsiy g'oyalarimizga yuqori baho berib, biz o'zimizga ma'qul bo'lgan shaxslar bilan aloqa qilishdan manfaatdor bo'lamiz;
- ijodiy fantaziyaga haddan ziyod urg'u berish.

Bunday yondashuv talabadagi tanqidiy ruhni pasaytiradi. Shunday ekan, bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida ijodiy-intellektual kompetentlikni rivojlantirishdagi pedagogik vazifalari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

- ijtimoiy-gumanitar fanlar asosida bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining intellektual salohiyati, bilimi va tafakkurini xalqaro ta'lim standartlari va darajalariga mos bo'lishiga tayyorlash;
- bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida keng dunyoqarashni shakllantirish, voqea va hodisalarga ilmiy xolislik va mantiqiylik tamoyillariga amal qilgan holda munosabat bildirishga qodir mustaqil fikrli shaxsni tarbiyalash;
- bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida erkin ijodiy fikrlash, ilmiy faollik, teran mulohaza yuritish, yuksak aqlu-zakovat, o'z bilimini boyitishga bo'lgan ishtiyoq va talabchanlikni rivojlantirish, ularga ilmiy materialni tahlil qilish va umumlashtirish asosida mantiqiy xulosalar chiqarishda ko'maklashishdan iborat.

Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida ijodiy-intellektual kompetentlikni rivojlantiruvchi pedagogik ta'lim-tarbiya jarayoni didaktik talablarga ham muvofiq kelishi, ya'ni bo'lib, ular quyidagi parametrlarga, xususan:

- *ilmiy bilimlarning yetakchi roli;*
 - *umuminsoniy qadriyatlarni bilib olish;*
 - *tarbiyalanuvchi shaxsning ilmiy dunyoqarashini shakllantirish;*
 - *ta'limning bir maqsadga qaratilganligi;*
 - *ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlariga muvofiqligi;*
 - *didaktik prinsiplariga amal qilinishi va h.k[5]larga ega bo'lishi lozim.*
- Pedagogik texnologiyani yaratishning bir necha tamoyillari mavjud:***
- *muayyan dars, mavzu, o'quv predmetida ko'zlangan maqsadni shakllantirib olish;*
 - *umumiy maqsaddan kelib chiqib, darsni yoki o'quv predmetini modullarga ajratib, har bir moduldan kutilayotgan maqsadni va modullar hal qilinishi lozim bo'lgan masalalar tizimini aniqlab olish;*
 - *modul ichida yechiladigan masalalarning har biri bo'yicha test savollarini tuzib chiqish;*
 - *maqsadlar aniq bo'lib, test va savollar tuzilganidan keyin maqsadlarga erishish usullari saqlanib, ularni ishlatadigan aniq joylarini belgilab olish;*
 - *tizimli yondashuv tamoyiliga binoan dars qismlari orasidagi zaruriy bog'liqliklarga va fanlararo aloqalarga alohida e'tibor qaratish[6].*

Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining intellektual-ijodiy kompetentligini aniqlash bo'yicha ishlab chiqilgan tashxislash metodikasini umumiy holda klaster shaklida berish tartibi ishlab chiqilgan bo'lib, unga muvofiq:

1. Jismoniy tarbiya va sport sohasidagi bilimlarga egalik salohiyati (sohaga oid fan va texnologiyalar rivojlanishi tendensiyalarini bilishi, sohaga oid bilimlarni amaliyotda qo'llay olishi, jismoniy tarbiya va tarbiyaviy ishlar metodikasini bilishi, tarbiyaviy ahamiyatini bilish va shu asosda yosh avlodni tarbiyalash, jismoniy tarbiyaning umumiy va xususiy masalalarini egallash, egallangan va o'zlashtirilgan bilimlarni o'zining kasbiy faoliyatida qo'llay olishi).

2. Resurslar bilan ishlash (jismoniy ta'lim o'quv predmetini o'qitish talablari, DTS da belgilangan talablarni bilishi, namunaviy, ishchi o'quv rejalaridagi sohaga oid ajratilgan soatlar hajmi, ularning boshqa o'quv predmetlari orasidagi ulushi xaqida tushunchaga ega bo'lishi, zarur bo'lsa, o'zgartirishlar kirita olishi, umumkasbiy fanlarning pedagogik asoslari, shaxs rivojlanishining pedagogikasi, psixologiyasi, fiziologiyasini bilishi, o'quv va uslubiy bilimlarni o'zlashtirganligi, motivatsiyaga egaligi).

3. Informatsion tizimlar va texnologiyalar bilan ishlash (axborot –kommunikatsion texnologiyalaridan foydalanish darajasi, o'quv mashg'ulotlarida ma'ruza, amaliy mashg'ulot va seminarlarda internet manbalari mavzuga doir yangi ma'lumotlar va boshqalardan foydalanish darajasi).

4. Jismoniy ta'limda jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini samarali o'tkazish qobiliyati (jismoniy mashg'ulotlarni o'tkazish bo'yicha talablarni bilishi, jismoniy tarbiya uskunolari bilan ishlash malakalariga egaligi).

5. O'z-o'zini rivojlantirish (bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchi uchun intellektual-ijodiy kompetensiyani rivojlantirishning ahamiyati) malakalari ajratib ko'rsatiladi.

Xulosa o'rnida aytish lozimki, bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchisining ijodiy-intellektual qobiliyati o'zini va dunyoni anglashi hamda baholashi asosida shakllanib, uning yordamida ijodiy-intellektual ongini o'stirish va tafakkurini kengaytirishi muhim amaliy ahamiyat kasb etadi, chunki mazkur omillar erkin va mustaqil fikrlaydigan, o'zligini anglay oladigan, ya'ni har xil zararli, buzg'unchi oqimlarga qo'shilmaydigan bo'lajak malakali mutaxassislarni salohiyatli qilib tarbiyalash imkoniyati yaratiladi. Shu bilan birga, globallashuv sharoitida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni, zamonaviy ilm-fan, texnika-texnologiyalar borasidagi yutuqlarni ilmiy asosda o'rganish va ilmiy tahlil qilish bo'lajak yosh mutaxassislar ijodiy-intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishda mustahkam ilmiy-pedagogik asos bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 martdagi "Jismoniy tarbiya va sport sohasidagi davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5368-sonli Farmoni.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 3 noyabrdagi PQ-4877-son "Jismoniy tarbiya va sport sohasida kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish va ilmiy salohiyatni oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori.

4. Маслоу Г.А. Дальние пределы человеческой психики. СПб.:Изд. гр. Евразия, 1997-С.69.

5. Sternberg, Robert J. *Wisdom, Intelligence, and Creativity Synthesized*. Cambridge: Cambridge UP, 2007. –R.68.

6. Haydarov S.A. "Tasviriy san'at asarlari vositasida "O'zbekiston tarixi" darslari samaradorligini oshirishning didaktik imkoniyatlari" (tarixiy miniatyuralar misolida). Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) diss. –namangan. NamDU, 2019. - B. 72.

7. Muslimov N.A. Kasb ta'limi o'qituvchisini kasbiy shakllantirishning nazariy-metodik asoslari. Ped.fan dok. Diss... aftoreferat. Toshkent.: 2007.